



ISSN: 2181-9416

YURIST AXBOROTNOMASI

ВЕСТИНИК ЮРИСТА * LAWYER HERALD

HUQUQIY, IJTIMOIIY, ILMIY-AMALIY JURNAL



CYBERLENINKA

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5



OCHILOV Samariddin Kamoliddinovich

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish

Akademiyasi Bakalavriat fakulteti katta prokurori

E-mail: samarochilov410@gmail.com

JAZONI O'TASHDAN MUDDATIDAN ILGARI SHARTLI OZOD QILISH ASOSLARINING NAZARIY TAVSIFI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): OCHILOV S.K. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarining nazariy tavsifi // Yurist axborotnomasi – Вестник юриста – Lawyer herald. № 5 (2024) B. 76-82.

5 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9416-2025-2-15>

ANNOTATSIYA

Maqolada jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarining nazariy tavsifi va o'ziga xos xususiyatlari, bu borada tadqiqotchi olimlar tomonidan ilgari surilgan ilmiy-nazariy qarashlar yoritilgan. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarining nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan, bu borada olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan. Shuningdek, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarini takomillashtirish yuzasidan qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Maqola mavzusi bugungi kunda dolzarb bo'lgan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqishni nazarda tutadi. Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar davomida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarini belgilovchi qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyoti hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va tahlil qilish qilish asosida yangi ilmiy-nazariy qarashlar ilgari suriladi.

Muallif mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini qo'llash asoslari yuzasidan ilmiy-nazariy sharhlarni bayon etgan hamda ushbu asoslarning turlarini kengaytirishni nazarda tutadigan takliflarni yoritgan. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarini tushunishning huquqiy va ilmiy-nazariy jihatlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: jinoyat, jazo, mahkum, hukm, jazodan ozod qilish, shartlar, mezonlari, sinov, xulq-atvor, insonparvarlik.

ОЧИЛОВ Самариддин Камолитдинович

Правоохранительная академия Республики Узбекистан

Старший прокурор факультета бакалавриата,

E-mail: samarochilov410@gmail.com

ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ОСНОВАНИЙ УСЛОВНО-ДОСРОЧНОГО ОСВОБОЖДЕНИЯ ОТ ОТБЫВАНИЯ НАКАЗАНИЯ

АННОТАЦИЯ

В статье изложены теоретическая характеристика и особенности оснований условно-досрочного освобождения от отбывания наказания, отражены научно-теоретические взгляды, выдвинутые исследователями по данной теме. Изучены теоретические и практические аспекты оснований для условно-досрочного освобождения от наказания, проанализированы проведённые в этом направлении исследования. Также представлены предложения и рекомендации, направленные

на совершенствование законодательства и повышение эффективности правоприменительной практики в сфере условно-досрочного освобождения.

Тема статьи посвящена разработке научно-теоретических выводов, направленных на совершенствование оснований применения условно-досрочного освобождения от наказания, что остаётся актуальным вопросом на сегодняшний день. В процессе исследований по данной теме изучено и проанализировано законодательство, регулирующее основания условно-досрочного освобождения, практика его применения, а также опыт зарубежных стран, на основе чего выдвинуты новые научно-теоретические подходы.

Автор, основываясь на результатах проведённых исследований, дал научно-теоретические комментарии по основаниям применения института условно-досрочного освобождения от наказания и изложил предложения, предусматривающие расширение видов таких оснований. Правовые и научно-теоретические аспекты понимания оснований условно-досрочного освобождения раскрыты подробно.

Ключевые слова: преступление, наказание, осуждённый, приговор, оправдание, условия, критерии, испытательный срок, поведение, гуманизм.

OCHILOV Samariddin Kamoliddinovich

The Law Enforcement Academy of the Republic of
Uzbekistan Senior Prosecutor of the Bachelor's Faculty,
E-mail: samarochilov410@gmail.com

THE THEORETICAL CHARACTERIZATION OF THE GROUNDS FOR CONDITIONAL EARLY RELEASE FROM SERVING A SENTENCE

ANNOTATION

The article provides a theoretical description and specific features of the grounds for conditional early release from serving a sentence. It highlights the scientific and theoretical views proposed by researchers on this issue. Theoretical and practical aspects of the grounds for conditional early release have been studied, and relevant research in this area has been analyzed. In addition, the article presents proposals and recommendations aimed at improving legislation and enhancing the effectiveness of law enforcement practices related to conditional early release.

The topic of the article is focused on developing scientific and theoretical conclusions aimed at improving the grounds for applying conditional early release from punishment, which remains a highly relevant issue today. During the course of the research, the legislation defining the grounds for conditional early release, its practical application, as well as the experiences of foreign countries were examined and analyzed, leading to the formulation of new scientific and theoretical perspectives.

Based on the results of the conducted studies, the author provides scientific and theoretical commentary on the grounds for applying the institution of conditional early release from punishment and presents proposals aimed at expanding the types of such grounds. The legal and scientific-theoretical aspects of understanding the grounds for conditional early release are thoroughly covered.

Keywords: crime, punishment, convict, sentence, acquittal, conditions, criteria, probation period, behavior, humanism.

Jinoyat sodir qilganligi uchun jazoga hukm qilingan shaxsni tuzalish yoʻlga oʻtganligini koʻrsatuvchi alomatlar mavjudligi, jazoni oʻtash davomida qonunda belgilangan mezonlar doirasida harakat qilganligi uni jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. Jazoni oʻtashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishning mazmuni uni qoʻllash asoslarida

namoyon bo'ladi. Mahkumni muddatidan ilgari shartli ozod qilish samaradorligini oshirish aynan uni qo'llash asoslari mukammal bo'lishini taqozo qiladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarini takomillashtirish uchun avvalo uning mazmun-mohiyatini va ahamiyatini ilmiy-nazariy va huquqiy jihatdan tadqiq etish lozim. Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari to'g'ri qo'llanilishi mahkumni samarasiz jazodan ozod qilish hamda uni axloqan tuzatishda muhim ahamiyat kasb etishi bilan birga axloqan tuzalmagan yoki sodir etgan jinoiy qilmishidan to'g'ri xulosa chiqarmagan mahkumni noto'g'ri jazodan ozod qilishni oldini olishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar tomonidan qayta jinoyat sodir etish holatlari ortib borayotganligiga barham berish qonunchilikdagi jazodan ozod qilish shartlarini og'irlashtirish orqali tegishli munosabat bildirilmoqda. Xususan, qonunchilikka jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishni qo'llash uchun mahkum amaldagi o'tashi lozim bo'lgan jazo muddatini uzaytirishni nazarda tutadigan o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Bizning nazarimizda, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish samaradorligini oshirish uni qo'llash asoslarining mazmun-mohiyatini to'g'ri ifodalashda namoyon bo'ladi. Buning uchun avvalo, qonunchilikdagi jazodan ozod qilish asoslarini ifoda etuvchi normalarga aniqlik kiritish orqali uni takomillashtirish lozim bo'ladi.

Bugungi kunda jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi eng dolzarb masalalardan biri jinoyat sodir etgan shaxslar yoki jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar tomonidan qayta jinoyatlar sodir etilishini oldini olish hisoblanadi.

Sudlar faoliyatiga oid statistik ma'lumotlarda [1] jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan shaxslar soni 2022-yilda 26753 nafarni, 2023-yilda 33612 nafarni, 2024-yilda 33151 nafarni, 2025-yilning birinchi yarmida 17144 nafarni tashkil etib, jazodan ozod qilishni qo'llash amaliyoti kengayganligini ko'rsatmoqda.

Shunday bo'lsa-da, sudlangan shaxslar tomonidan birgina giyohvandlik bilan bog'liq jinoyatlar sodir etilishi holati tahlil qilinganda, sudlangan shaxslar tomonidan bunday turdagi jinoyatlar sodir etilishi 2020-yilda 3941 nafarni, 2021-yilda 4182 nafarni, 2022-yilda 5825 nafarni, 2023-yilda 6204 nafarni, 2024-yilda 8374 nafarni, 2025-yilning 1-yarmida 4578 nafarni tashkil etgan.

Tadqiqotchilar tomonidan huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiya jarayonining ijtimoiy-huquqiy asoslari hamda shaxs ijtimoiylashuvi masalalari tahlil qilingan [2]. Mahkumning axloqan tuzalishida uni ijtimoiy moslashuvi muhim ahamiyatga ega bo'lib, ijtimoiy moslashuv huquqiy tarbiyani ham shakllantirishni nazarda tutadi. Ya'ni, mahkum unga nisbatan tayinlangan jazo yengilrogi bilan almashtirilganda, yana qayta jinoyat sodir etadigan bo'lsa, bunday hatti-harakatining huquqiy oqibatlarini tushunib yetishi lozim.

Xorijiy olimlarning tadqiqot ishlarida huquqbuzarliklar sonining determenantlari (aniqlovchilari) haqidagi nazariyalar shaxsning bosh suyagi turlari va biologik merosiga e'tibor qaratishdan tortib, oilaviy tarbiya va jamiyatdan nafratlanishgacha bo'lgan holatlarga ko'ra boshqa nazariyalardan farqlanadi [3].

Shartli jazo va sud tomonidan kelgusida tayinlangan jazoni o'tashdan shartli ravishda ozod qilishning yagona jinoiy-huquqiy xususiyatini, ularni amalga oshirishning umumiy asoslarini inobatga olgan holda jazoni o'tashdan ozod qilingan mahkumlarga yuklatilgan majburiyatlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir [4]. Bunday ilmiy-nazariy qarashlar jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarini qo'llash mahkumning xulq-atvoridagi o'zgarishlardan kelib chiqqan holda amalga oshirilishini ilgari suradi. Aynan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari ozod qilishni qo'llash uchun uni qo'llash asoslari yuzaga kelishini taqozo qiladi. Asoslar mavjud emasligi jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni istisno qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 73-modda mazmuniga ko'ra jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish ozodlikdan mahrum qilish, intizomiy qismga jo'natish, xizmat bo'yicha cheklash, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish mahkumning muayyan jazo turi uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajarishi va mehnatga halol munosabatda bo'lishi bilan uzviy bog'liq bo'lgan rag'batlantiruvchi xususiyatga ega [5].

Jazodan o'tashdan ozod qilish uchun jazoni ijro etish yoki qo'llash maqsadga muvofiq emasligiga jinoyat sodir etgan shaxsning ijtimoiy xavfliligi sezilarli darajada kamayganligi asos bo'ladi [6]. Mazkur ilmiy-nazariy qarashlar mahkumni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun u jazo turi uchun o'rnatilgan tartib-qoidalarni tan olgan va talablarga rioya qilgan bo'lishi hamda mehnatga halol munosabati bilan axloqan tuzalganligini namoyon qilishi lozim bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi tushuntirishlarida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish, jazoni yengilroq jazo bilan almashtirish, faqat sud tomonidan tayinlangan jazoning qonunda nazarda tutilgan qismini o'tash paytida (hukm qonuniy kuchga kirgunga qadar ushlab turilgan, qamoqda, uy qamog'ida saqlangan vaqtni hisobga olgan holda) o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lgan mahkumlarga nisbatan qo'llanilishi mumkinligi qayd etilgan.

Qonunchilikka ko'ra, jinoyat sodir etgan shaxs agar ish sudda ko'rilayotgan vaqtgacha sharoit o'zgardi yoki shaxs namunali xulqi, mehnatga yoki o'qishga halol munosabati bilan o'zini ko'rsatib, ijtimoiy xavfliligini yo'qotdi deb e'tirof etilsa, sud uni jazodan ozod qilishi mumkin.

Moddiy asos nuqtayi nazaridan sud tomonidan mahkumning tuzatish uchun jazoni to'liq o'tashni davom ettirishi shart emasligini e'tirof etish kifoya. Biroq, ba'zi olimlar shartli ozod qilishning moddiy asosi mahkumni isloh qilish maqsadiga erishishdir, degan noto'g'ri taxminlarni ilgari suradilar [7].

Shaxsni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish institutini takomillashtirish shaxs hukm qilingan muddatidan ilgari ozod qilinishi mumkin bo'lgan jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib qoidalar mazmunini alohida o'rganib chiqish hamda ushbu tartib-qoidalarni ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etishni taqozo qiladi.

Tadqiqot mavzusi doirasida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash asoslarini ilmiy-nazariy va huquqiy xususiyatlarini tahlil qilgan holda yoritish uni mazmunini to'g'ri tushunish hamda huquqni qo'llash amaliyoti samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga oid normalar tahlili uni qo'llashning quyidagi asoslari mavjud deb hisoblaymiz:

1. Jazo turlarini o'tash uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajarish. Shaxs jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilinishi uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablari jazo turlari va ularning xususiyatiga qarab turlicha belgilangan. Masalan, ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tash uchun tartib-qoidalar alohida normativ-huquqiy hujjat bilan belgilangan bo'lsa, Jinoyat kodeksi 73-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan boshqa jazo turlarini o'tashning tartib-qoidalari bevosita O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-ijroya kodeksida belgilangan.

Mazkur norma shaxsni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish turlaridan jazoni o'tash uchun o'rnatilgan tartib-qoidalarning umumiy tamoyillarini belgilaydi. Aynan ushbu majburiyatlar jazoni o'tash uchun o'rnatilgan ichki-tartib qoidalarning umumiy mazmunini ifoda

etadi. Qayd etilgan majburiyatlar bajarilmasligi shaxsni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llashni istisno qiladi.

2. Mehnatga halol munosabatda bo'lish. Mahkumni mehnatga halol munosabatda bo'lishi uni hukm qilingan jazodan tegishli xulosa chiqarganligi, qo'llanilgan jazo chorasini ijobiy samara berganligi, mahkum tuzalish yo'liga o'tganligidan dalolat beradi.

Mehnatga halol munosabat deganda, mahkumlar mehnatga jalb qilinib, o'ziga yuklatilgan mehnat vazifasini va belgilangan normani muttasil, sidqidildan halol bajarib kelayotganligi uning halol mehnat yo'liga o'tib olganligini ko'rsatuvchi mezon hisoblanib, uni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish uchun taqdim qilishga asos bo'ladi. Bu asosni mahkumning jazoni ijro etish va o'tash tartibiga rioya etish majmui sifatida qarash kerak. Bir qancha holatlarda mehnatga halol munosabatda bo'lish (masalan, ozodlikdan mahrum qilish va axloq tuzatish ishlari tariqasidagi jazo tayinlanganda) alohida ahamiyat kasb etishi mumkin [8].

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ozodlikdan mahrum qilish turidagi jazoni ijro etish muassasalarining ichki tartib qoidalarining 399-1-bandida mahkumlarning tuzalish yo'liga o'tganligini aniqlash mezonlari bayon etilgan bo'lib, shunday mezonlar sirasiga mahkumning mehnatga vijdonan munosabatda bo'lishi, belgilangan mehnat normalarini bajarishi, ongli ravishda mustaqil ishlash ko'nikmalarining shakllanganligi ham kiritilgan.

Voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 89-moddasi bilan tartibga olinadi. Mazkur moddaga ko'ra, o'n sakkiz yoshga to'lmasdan sodir etgan jinoyati uchun ozodlikdan mahrum qilishga, ozodlikni cheklashga yoki axloq tuzatish ishlariga hukm qilingan shaxsga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish qo'llanilishi mumkin.

Sudlar faoliyatiga oid statistik ma'lumotlarda [1] jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilingan voyaga yetmaganlar 2020-yilda 133 nafarni, 2021-yilda 236 nafarni, 2022-yilda 546 nafarni, 2023-yilda 725 nafarni, 2024-yilda 831 nafarni, 2025-yilning 1-yarmida 469 nafarni tashkil etganligi voyaga yetmaganlarga nisbatan jazoni o'tashdan ozod qilishning ushbu turini qo'llash yildan yilga oshib borganligini ko'rish mumkin.

Shu bilan birga, sudlangan voyaga yetmagan shaxslar 2020-yilda 499 nafarni, 2021-yilda 1151 nafarni, 2022-yilda 1773 nafarni, 2023-yilda 1911 nafarni, 2024-yilda 2214 nafarni, 2025-yilning 1-yarmida 1255 nafarni tashkil etgan [1]. Sudlangan voyaga yetmaganlar shaxslar soni ortib borayotganligi voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash asoslarini takomillashtirishni taqozo qiladi.

Voyaga yetmagan mahkumga nisbatan jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash uchun u ozodlikdan mahrum qilish, ozodlikni cheklash yoki axloq tuzatish ishlari jazolarini o'tash uchun belgilangan tartib-qoida talablarini bajargan hamda mehnat va o'qishga halol munosabatda bo'lganligi talab qilinadi.

Mehnatga yoki o'qishga halol munosabat deganda, voyaga yetmaganning halol mehnat qilishi va o'qishga halollik bilan munosabatda bo'lganligi, faqatgina ma'lumot olish uchun o'qishga bo'lgan munosabatigina emas, balki hunar-texnika bilim yurtida o'qishi va o'z malakasini oshirishi ham nazarda tutiladi [9].

Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishga asos bo'ladigan holatlar sifatida voyaga yetganlarni nisbatan farqli ravishda jazo turlari uchun o'rnatilgan tartib-qoida talablarini bajargan va mehnatga halol munosabatda bo'lish bilan birga o'qishga ham halol munosabatda bo'lganligi talab qilinadi.

Mahkumlar ta'limining maqsadi mahkumlarning savodini chiqarish va ularga umumiy o'rta ma'lumot berish, ularni turli kasb-hunar egallashlariga yordam berish, jazoni o'tayotgan vaqtda

ularni ijtimoiy foydali mehnat bilan band qilish va eng asosiysi, ularni ozodlikka chiqqanlaridan so'ng qayta ijtimoiylashuvlarini yengillashtirishdan iborat [10].

Voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash asoslari amaldagi qonunchilikka ko'ra faqatgina voyaga yetmaganni o'qishga halol munosabatda bo'lganligi talabi bilan voyaga yetganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslaridan farq qiladi. Bizning nazarimizda, voyaga yetmaganlarning fiziologik va kriminologik aspektlariga ko'ra voyaga yetganlarga nisbatan voyaga yetmaganlarni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilishni qo'llash asoslari asoslarining turlarini kengaytirish lozim.

Xorijiy mamlakatlar jinoyat qonunchiligida jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari batafsilroq va mahkumning xulq-atvori xususiyatiga chuqurroq yondoshgan holda bayon etilganligini kuzatishimiz mumkin.

Xususan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksining 79-moddasida mahkumning jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish to'g'risidagi iltimosini ko'rib chiqishda sud mahkumning xatti-harakatlarini, uning jazoni o'tash davrida o'qish va mehnatga bo'lgan munosabatini, shu jumladan mavjud rag'batlantirish va jazolash, mahkumning sodir etilgan harakatga munosabati va boshqa ijtimoiy foydali holat va xususiyatlarni inobatga olishi nazarda tutilgan [11].

Belorus Respublikasi Jinoyat kodeksining 90-moddasida mahkumga nisbatan jazni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish faqat o'zini tuzalganligini isbotlovchi xatti-harakatlariga asosan qo'llanilishi mumkinligi bayon etilgan [12].

Moldova Respublikasi Jinoyat kodeksining 91-moddasiga ko'ra ozodlikdan mahrum qilish jazosini o'tayotgan shaxsga, agar u jazoni ijo etishning individual dasturini bajargan bo'lsa, shaxs sudlangan jinoyat natijasida etkazilgan zararni to'liq qoplagan bo'lsa jazodan muddatidan oldin shartli ravishda ozod qilish mumkin [13].

Milliy jinoyat qonunchiligimizda mahkumni jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslari qayta ko'rib chiqilib, ushbu asoslar mahkumning tuzalish yo'liga o'tganligi kompleks baholash imkonini beradigan ijtimoiy foydali faoliyat bilan bandligi, muayyan natijalarga yoki yutuqlarga erishganligi, jamiyat uchun foydali bo'lgan naf keltirganligi, tuzalish yo'liga o'tganligini tasdiqlovchi holatlar nuqtayi nazaridan kelib chiqqan holda takomillashtirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Mavzu yuzasidan olib borilgan tadqiqot va tahlillar natijasi ko'ra, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ozod qilish asoslarini takomillashtirish borasida quyidagi takliflar bildiriladi:

birinchidan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilishda "mahkumning tuzalish yo'liga o'tganligini tasdiqlovchi holatlar mavjudligi va ijtimoiy foydali faoliyatda band bo'lganligi"ni umumiy asos sifatida e'tirof etish;

ikkinchidan, jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish asoslari sirasiga nomunosib yoki nojo'ya xatti-harakatlardan o'zini tiyganligi, ta'lim olish va tadqiqot bilan shug'ullanganligini (ta'lim muassasalarida o'qish, o'quv kurslarida qatnashish, kasb o'rganish, ilmiy ish, ixtirolar, tadqiqot loyihalari va h.k), faoliyatda (shaxsiy va kasbiy) natijalarga yoki yutuqlarga erishganligini (oilalar qurish, mol-mulkka ega bo'lish, o'qishni tamomlash, ishga joylashish, musobaqa va ko'rik-tanlovlarda g'olib bo'lganligi va h.k.) kiritish;

uchinchidan, Jinoyat kodeksi 73-moddasining 2-qismini "Jazoni o'tashdan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish munosib xulq-atvori bilan ijobiy natijalarga erishgan va ijtimoiy foydali faoliyatda band bo'lgan mahkumga nisbatan qo'llaniladi" degan mazmunda o'zgartirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Sudlar faoliyati bo'yicha statistik ko'rsatgichlar. Rasmiy veb-sayt: stat.sud.uz.
2. Amirov Z.A. Huquqbuzarliklarning oldini olishda huquqiy tarbiyaning roli. Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi. – T., 2018. – 50 b.
3. Gary S. Becker. Crime and Punishment: An Economic Approach. University of Chicago and National Bureau of Economic Research. 1974. 55 pages., pg 9. Chapter URL: <http://www.nber.org>.
4. Ефремова И.А. Институт освобождения от наказания в теории уголовного право, законодательной и судебной практики. Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук. – Саратов, 2018. – С.261.
5. Turgunboyev E.O. Jazodan ozod qilish institutini takomillashtirish masalalari. Yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent davlat yuridik universiteti. – Toshkent, 2023. –B.112.
6. Российское уголовное право. Общая часть : учебник / под ред. Г. А. Есакова. – Москва: Проспект, 2019. – С.332.
7. Щерба Д.А. Условно-досрочное освобождение от отбывания наказания: вопросы теории и практика: Диссертация на соискание ученой степени кандидата юридических наук. – Хабаровск, 2007. – С.21, 201.
8. Rustambayev M.X. O'zbekiston Respublikasi jinoyat huquqi kursi. Tom 2. Darslik. 2-nashr, to'ldirilgan va qayta ishlangan. – T.: O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnik instituti. – T.: "Complex Print", 2018. – B.229.
9. M.X.Rustambayev. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga sharhlar. Umumiy qism. – Toshkent: "Yuridik adabiyotlar publish", 2021. –B.746.
10. Тураханова Д.А. Вопросы образования в пенитенциарной системе (на примере мирового опыта). Современное образование/Современное образование, - 2020, 4 (89). -С.42.
11. Законы, кодексы и нормативно-правовые акты российской федерации. Уголовный кодекс Российской Федерации. <https://legalacts.ru/kodeks/UK-RF>
12. Национальный центр законодательства и правовой информации Республики Беларусь, 2003-2025. Источник: <https://pravo.by/document>.
13. Информационная система Континент. Уголовный кодекс Республики Молдова. <https://continent-online.com>.

YURIST AXBOROTNOMASI

5-SON, 7-JILD

ВЕСТНИК ЮРИСТА

НОМЕР 5, ВЫПУСК 7

LAWYER HERALD

VOLUME 7, ISSUE 5

ISSN 2181-9416

DOI JURNAL: 10.26739/2181-9416